



PROBLEMS OF SPIRITUAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Gulnoza Ashurovna Dustova

Bukhara State Pedagogical Institute

Second-year Master's student

Teaching Methodology of Social and Humanitarian Sciences

Bukhara, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Independence, spirituality, spiritual, development, values, national, idea, upbringing, education, youth, culture, reforms, ideology, social, consciousness, self-identity, progress, globalization, tradition, heritage.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: In this study, the process of spiritual development in Uzbekistan during the years of independence and its pressing issues are scientifically analyzed. The restoration of national values and their harmonization with universal principles in the life of society are highlighted as the main directions. Social, political, and cultural factors influencing spiritual progress are examined in their interconnection. Special emphasis is placed on the role of the education and upbringing system in shaping the spirituality of youth. The research results have scientific and practical significance in addressing the problems of spiritual development.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Gulnoza Ashurovna Dustova

Buxoro davlat pedagogika instituti

II-bosqich magistranti

Ijtimoiy va gumanitar fanlarni

O'qitish metodikasi (Ma'naviyat)

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mustaqillik, ma'naviyat, ma'naviy, rivojlanish, qadriyatlar, milliy, g'oya, tarbiya, ta'lim, yoshlar, madaniyat, islohotlar, mafkura, ijtimoiy, ong, o'zlik, taraqqiyot, globallashuv, an'ana, meros.

Annotatsiya: Mazkur mavzuda mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy rivojlanish jarayoni va uning dolzarb muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash

va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish masalalari asosiy yo'nalish sifatida yoritiladi. Ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining o'rni alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari ma'naviy rivojlanish muammolarini bartaraf etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Гульноза Аишуровна Дустова

Магистрантка II курса

Бухарский государственный педагогический институт

Методика преподавания социальных и гуманитарных наук (духовность)

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: независимость, духовность, духовное, развитие, ценности, национальная, идея, воспитание, образование, молодежь, культура, реформы, идеология, социальное, сознание, идентичность, развитие, глобализация, традиция, наследие.

Аннотация: В данной работе научно анализируется процесс духовного развития в Узбекистане в годы независимости и его текущие проблемы. Основное направление – восстановление национальных ценностей в жизни общества и их гармонизация с универсальными принципами. Рассматриваются социальные, политические и культурные факторы, влияющие на духовное развитие, в их взаимосвязи. Подчеркивается роль системы образования в формировании духовности молодежи. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для решения проблем духовного развития.

Kirish. Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvaloma'naviyat-ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdi. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o'zgardi. Agarda, sho'rolar mustabid tuzimi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a'zolarining kommunistik mafkura va soxta g'oyaga e'tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo'lsa, istiqol davrida uning maqsadi tamomila o'zgardi. Eng avvalo, mamlakat hukumati, Prezidentning ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustivor yo'nalishi deb hisoblandi.

Birinchidan: Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq shularning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyatning hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmalariga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshlandi. Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch ekanligie'tirof etilmoqda. To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi jamoatchilik fikri shakllandi. Beshinchidan, istiqlol davridama'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan holiligi. Prezident I.Karimovning 1992 yil 7 martidagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. 27 mart kuni O'zbekiston Prezidentining "Ro'za Hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida" farmon e'lon qilindi.1992 yildan boshlab har yili mamlakatimizda ro'za xayiti umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. SHuningdek, qurbon xayiti ham yurtimizda dam olish kuni va bayram qilib nishonlanadigan bo'ldi. Eng muhimi, xalqimiz o'z tarixida birinchi marta bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish sharafiga muyassar bo'lmoqda.1995 yil 19 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Toshkentda xalqaro islom tadqiqot Markazi tashkil etildi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zliklarini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'ldi.Shu o'rinda 1989 yili madaniyat vazirli gihuzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozimdir.Agarda 90-yillarning boshlarida O'zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa,hozirgi kunga kelib ularning soni 80 dan ortdi.Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko'lami ham ortdi va 1992 yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal Madaniy markazi tashkil etildi. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilalilik nisbatini saqlashga muhim vazifasifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda 130 ga yaqin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolotlarigahar qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining xudbinlik kayfiyatlarini muqarrar tarzda boshqa millat, xalq imkoniyatlarini zo'ravonlik va zug'um bilan chegaralab qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshirdi. Yurtimizda ma'naviy merosni tiklashga bag'ishlab amalga oshirilgan ulkan ishlardan biri Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik, Imom Ismoil al-Buxoriyning 1225 yilligi hamda Amir Temurning 660 yilligi yubileylari tantanalarini nishonlash, ularning faoliyatini va ijodini to'liq yoritib xalqimizga bayon etish hamda nomlarini

abadiylashtirish bo'ldi. Hukumatimiz qarori bilan 1996 yil Amir Temuryili deb e'lon qilindi. Uning yubiley tantanalari nafaqat O'zbekistonda balki xalqaro miqyosda ulkan ko'tarinkilik bilan nishonlandi. Amir Temurning hayoti, faoliyatiga doir bir necha o'nlab asarlar yaratildi. O'zi tug'ilgan Shaxrisabzda hamda Toshkentning markazida ulkan haykali o'rnatildi. SHuningdek, nihoyatda xashamatli tarzda Temuriylar muzeyi binosi qad ko'tardi. Amir Temur nishoni ta'asis etildi. Bu qilingan ishlar shuni bildiradiki, mustaqillik sharofati bilan ko'plab haqiqatlar yuzaga chiqmoqda, ya'ni, shulardan eng yirigi-sho'rolar davrida g'irt bosqinchi, kallakesar, gazanda degannomlar bilan niqoblanib kelingan Amir Temur nomi o'zining haqiqiy yirik tarixiy shaxs, intizomli iqtidorli hukmdor, etuk sarkarda, bunyodkor, yirik, markazlashgan turkiy davlat asoschisi degan haqiqiy obro'-e'tibori va mavqeini topdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadrqimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi. Bugungi kunda mamlakatimizda ettimingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500ta me'moriy obida, 2700ta dan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskonning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi yillarda bunyod etilgan Oqmasjidi istiqlol davrida xalqimizning muqaddas ziyoratgohiga aylanib, yaxshilik va ezgulikka, tinchlik va osoyishtalikka, o'zaro ahil va hamjihat bo'lishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming minglab qo'lyozmalargacha bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta me'rosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Mustaqillik yillarida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida Prezidentimiz

tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 5 ta muhim tashabbusning har bir yo'nalishi ma'lum bir sohani o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi tashabbus –yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr vasan'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus –yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus –yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus –xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Bugungi O'zbekiston jamiyatida diniy bag'rikenglikning noyob tajribasi to'planganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehroqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. O'zga din vakillari bilan hamjihatlikda, o'zaro ishonch, yaqinlik asosida istiqomat qilish, vijdon erkinligiga qaramay O'zbekistondagi davlat siyosati, qolaversa, dunyo hamjamiyatining oldidagi muhim maqsadlardan biridir. O'zbekistonda turli konfessiya vakillari, diniy mansubligi turlicha xalqlarning asrlar davomida o'zaro tinchlik va xotirjamlikda yashab kelishlarining asrlar davomida tajribasi mavjud. Uzoq yuz yillar davomida musulmonlar, xristianlar, iuedallar va boshqa diniy qatlamlar tolerant yashashning o'ziga xos ijobiy jihatlarini o'zlarida jamlaganlar. Diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat yangilanayotgan O'zbekistonda tubdan o'zgardi. Diniy qadriyatlardan xavfsirash emas, undan ilmu ma'rifat yo'lida, yosh avlodning tarbiyasi yo'lida foydalanish o'z natijalarini bera boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev diniy qadriyatlarga o'ziga xos yondashuv, ya'ni xalqimiz kelajagi va yoshlarimiz tarbiyasidagi beqiyos o'r'niteran anglash lozimligini doimo uqtirib kelmoqda. Jumladan, prezidentimizning ta'kidlashicha, "azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi." Shu nuqtayi nazardan buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini

kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy va madaniy taraqqiyot xalqning tarixiy va milliy o'zligini tiklash, qadriyatlarni rivojlantirish hamda yangi avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratildi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar orqali milliy urf-odatlar va an'analar qayta tiklanib, zamonaviy jamiyatda ularning o'rni mustahkamlandi. Milliy istiqlol g'oyasi asosida xalqni birlashtiruvchi va mafkuraviy poydevorni yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda qadimiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi madaniy meros o'choqlarining xalqaro miqyosda nufuzini oshirish maqsadida ularning yubileyleri keng nishonlandi. Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi, mamlakatning boy madaniy merosi va islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini dunyoga namoyon qildi. Shuningdek, adabiyot, san'at, teatr va musiqa sohalarida ham ulkan taraqqiyot kuzatildi. Ko'plab madaniyat markazlari va kutubxonalar qayta tiklanib, yoshlarning ma'naviy barkamolligiga xizmat qiluvchi dasturlar amalga oshirildi. Natijada, O'zbekiston xalqi nafaqat o'zining boy tarixiy ildizlariga qaytdi, balki dunyo sahnasida o'zining o'rnini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Aynan ma'naviy taraqqiyotga kelajakda tinchlik, farovonlik, jahon hamjamiyatida munosib o'rin olishdagi muhim tayanch deb qaralishi jamiyat hayotida barqaror bo'lib bormoqda. O'zbekistonda jamiyatda kechayotgan yangilanishlarning yana bir katta sohasi bu tarixiy shaxslar, tarixiy qadriyatlar va milliy san'at, qadriyatlarni aslicha saqlash borasidagi tadbirlardir. O'z tarixini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarni ijtimoiy hayotning muhim jihatlaridan biriga aylantirish O'zbekiston davlat siyosatining ilg'or qismiga aylandi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 416 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va forovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. – 408 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. – 520 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

7. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. Darslik. –Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2011.

8. O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2016-yillar) –Toshkent: Yangi nashr, 2017.

9. To'xtaboyeva D.E. Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysidagi urbanizatsiyajarayonlari (kichik va o'rta shaharlar misolida 1991-2017-yy). –Toshkent.